



MASHAQATLARDA TOBLANGAN SHAYXZODA

*Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi
Toshkent davlat transport universiteti
Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi
yoldoshevafarangiz311@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikki xalqning adabiyot merosiga o'zining asarlari bilan munosib hissa qo'sha olgan atoqli shoir va dramaturg Maqsud Shayxzodaning mashaqqatlarda toblangan ibratli hayot yo'li haqida ma'lumotlar beriladi.

Kirish so'zlar: mashaqqat, sabr, ibrat, insoniylik, metin bardosh, matonat.

ШАЙХЗАДЕ, ОКАЗАВШАЯСЯ В БЕДЕ

Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна.
Ташкентская область транспортный университет
Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени
yoldoshevafarangiz311@gmail.com

Абстрактный. В данной статье представлена информация об образцовом жизненном пути известного поэта и драматурга Максуда Шейхзаде, внесшего своими произведениями достойный вклад в литературное наследие двух народов.

Ключевые слова: трудолюбие, терпение, урок, человечность, выносливость, настойчивость.

SHAYKHZADA, WHO WAS FOUND IN HARDSHIPS

Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna
Tashkent state transport university
Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student
yoldoshevafarangiz311@gmail.com

Abstract. This article provides information about the exemplary life path of the famous poet and dramatist Maqsud Sheikhzadeh, who made a worthy contribution to the literary heritage of the two nations with his works.

Key words: hard work, patience, lesson, humanity, endurance, perseverance.



Atoqli shoir va dramaturg Maqsud Shayxzoda 1908 yil Ozarbayjonning Ganja viloyatidagi Oqtosh shahrida tug'ildi. Badiiyatga erta qiziqdi. O'zi e'tirof etishicha, "hali alifboni egallamasdan oldin"she'r yarata boshladi. Ijodi ona Vatanida ko'z ochdi, lekin ilg'or fikrlari tufayli ta'qibga uchrab, 1929 yil Toshkentga ko'chib o'tdi. Shundan boshlab umrining oxirigacha O'zbekiston unga ikkinchi Vatan bo'lib qoldi. Toshkentda shoir qator gazeta jurnallarda ishladi, oliy o'quv yurtlarida dars berdi, ilmiy faoliyat olib bordi. Uning ko'pdan ko'p tadqiqotlari o'zbek adabiyotshunosligi rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Nizomiy Ganjaviy, SHota Rustaveli, Shekspir, Bobur, Bayron, Pushkin ijodiga bag'ishlangan maqolalarda bu san'atkorlarning jahon adabiyoti ravnaqidagi o'rni o'rganildi. Shayxzodaning, ayniqsa, Alisher Navoiy poetik mahoratini tadbiq etgan ishlari ilmiy chuqurligi, go'zalligi bilan ajralib turadi. "G'azal mulkining sultoni" deb atagan turkumdagimaqolalari hozirgacha yangi avlod navoiyshunoslariiga o'rnak bo'lib keladi.

Shekspir, Bayron, Maxmumquli, Tagor, Avetik Isaakyan, Nozim Hikmat asarlarining o'zbek tiliga o'girilgan qator namunalarida Shayxzodaning yuksak tarjimonlik san'ati namoyon bo'ladi.

Maqsud Shayxzodaning o'zbek adabiyoti, madaniyati ravnaqiga qo'shgan hissasi mustaqil O'zbekiston va uning hukumati tomonidan munosib e'zozlandi. Qator maktab va ko'chalar uning nomi bilan taqdirlangan.

XX asr o'zbek she'riyati rivojida Shayxzodaning o'mi katta. Rang barang shakl va mazmun, ko'tarinki ruh, o'ktam pafos bilan sug'orilgan she'rlaridagi quyma obrazlar, ramziylik, so'zlardagi jarangdorlik, musiqiy salobat shoir asarlariga ajib badiiy yaxlitlik baxsh etadi, o'quvchi qalbida shularga monand hissiyotlar to'lqinini uyg'otadi.

Shoir hech qachon, kitobiy, sun'iy muammolarni izlamadi. U, eng avvalo, o'zini hayajonga solgan, o'zidagi fuqarolik va poetik hujayralari ko'zini ochgan masalalarga murojaat etadi. Shoir uyg'otgan yog'dular kitobxon qalbi, shuurga ham ko'chib o'tadi. O'zining yangi umrini boshlaydi. Uning she'rlarida, ayniqsa, chiroylı badiiy obrazlar mo'ldir. Shoирга ba'zan dengizdagи nuqtadek qayiq "suv ustidagi xol" bo'lib tuyulsa, ba'zan chag'alaylar quyrig'i "Ufqqa berilgan savol" bo'lib jaranglaydi.

Shayxzoda she'rlari "Chorak asr davomida", "Dunyo boqiy", "Xiyobon" singari o'nlab to'plamlarda bosilib chiqdi. Bu she'rlar yuksak insoniy orzular bilan yashayotgan zamondosh xayollari, muhabbat, dardlari, umidlari bilan kuylandi. To'g'ri, qirq yil davom etgan ijodida Shayxzoda Lenin, Kreml, sho'rolar, irqa va firqaviyarlari ham kuyladi. Lekin bu zamon va tuzumning shoir taqdiri va ijodidagi



muhridir. Biroq Shayxzoda she'riyatining qimmati bu yo'nalishdagi asarlar bilan emas, inson qalbining nozik va betakror holatlarininafis va ko'tarinki, umidvor aks ettirib, o'quvchida ana shunday go'zal onlarning yanada boyishida xizmat qiluvchi asarlari bilan belgilanadi. Shayxzoda shoirning asosiy vazifasini "inson ruhini tarbiyalash, odama yaxshilik unsurlarini ko'paytirish, xalqqa go'zallik va nafosat tuyg'usini yanada ъaland darajada ko'tarishda" deb bilgan edi.

Uning "Toshkentnoma" nomli lirik falsafiy dostoniga munosabatda ham shu nuqtayi nazardan kelib chiqish to'g'ri bo'ladi. Shoining bu fikrlari o'zining aksar she'rlari uchun ham ochqich bo'la oladi.

Maqsud Shayxzoda fikricha va iqroricha, hayotdagi buyuk ne'matlardan biri she'riyat, tengsiz go'zalliklardan biri she'rdir. Shayxzoda "She'r chin go'zallik singlisi ekan" nomli she'rida butun ijodi bo'ylab porlagan - she'riyatning insonga cheksiz go'zalliklar, ruhiy tovlanish va evrilishlar in'om etguvchi mohiyatini kuylaydi, uning yangi-yangi qirralarini ochishga intiladi.

She'r sarlavhasidagi fikr, bir jihatdan, yangilik emasdek. Unga yaqin qarashlarni Navoiy, Pushkin, Yesenin, Cho'lpon ijodida ham uchratamiz. Biroq she'riyatning yozilmagan qoidalariga ko'ra, asosiy masala, asarga turtki bo'lган fikr va ifodalananayotgan ma'nodagina emas, balki ularning badiiy namoyon etilish tarzi, o'quvchi ruhiyatida yangi to'lqinli tuyg'ularni uyg'ota bilish san'atidir. Shayxzodaning "She'r chin go'zallik singlisi ekan" asari shu jihatlari bilan qimmatli.

Asarda she'riyat, inson tabiatini va umrini yashnatib turuvchi ulug' xosiyatlardan biri sifatida ulug'lanadi. She'r bilan oshno bo'lish, muallif fikricha, inson fe'l-atvorini, quvvayi ziyosini, ma'naviyatini sermazmun qiladi, ruhiyati barkamol bo'lishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Har kimki u bilan sevishsa agar -

Husniga chiroylar qo'shilar aynan.

Bu chiroy nainki surat, ayni vaqtda siyrat chiroyi hamdir. O'quvchi bu misralarning hayotiy, jonli, purhikmat ekaniga sinfdoshlar, uzoq-yaqin hamsuhbat do'stlar, tanish-bilishlar misoldida ishonch hosil qilishi turgan gap. She'riyat ixlosmandi umr ma'nosidagi achchiq haqiqat-u, oniy nazokatlarni chuqur tushunishi, tiniqroq his etishi, go'zal ma'nolar va tuyg'ulardan mutaassir bo'lishi hamda shular ta'siridagi o'zining kishini o'ziga jalb etib turmaydimi?

Umr shomiga yaqin Shayxzoda bir xatti-harakatlari, dunyoga qarashi, atrofdagilarga munosabati, xususan, ichki va tashqi istarasi bilan qator judoliklarni boshdan kechirdi. 1966-yilda yaqin do'sti, buyuk shoir G'afur G'ulom, munosabatlari yaqin bo'lган ulkan davlat arbobi Usmon YUsupov vafot etdi. Bu



yo'qotishlar shoir yuragida kuchli aks sado berdi: "G'afurga xat" va "Ayriliq" (Usmon Yusupov xotirasiga) nomli she'rlar yaratildi.

Insonni qadrlash, har bir qalbning izzat nafsiga xolis munosabat muammolarni badiiy yoritish Shayxzoda she'riyatining etakchi yo'nalishini tashkil etadi. Shoir o'zi ham hayotga bir qator adolatsizlikka ro'barsh keldi. O'tgan asrning 20-yillarda nohaq quv-quvga uchradi, 50-yillar avvalida nohaq qamalib chiqdi. Bular bari bez o'tmadi, albatta:

Do'stlar, yaxshilarni avaylab saqlang!
"Salom" degan so'zning salmog'in oqlang!
O'lganda yuz soat yig'lab turgandan -
Uni tirigida bir soat yo'qlang!

"Ayriliq" she'rida shu poetik g'oya yanada chuqurlashtirildi. Asar XX asr o'rtalarida O'zbekistonga rahbarlik qilgan, xalqning sevimli farzandi xotirasini ulug'lashga qaratilgan bo'lsa-da, mohiyatan, xalq, Vatan uchun fidoyi siymolar nomini abadiylashtirish, ularga hurmat bajo keltirish maqsadlariga qaratilgan.¹

Darhaqiqat, shoir o'zidan avval yashab o'tgan, yurt ertasi uchun o'zining munosib hissasini qo'shgan buyuk ajdodlarimizni shundayin ardoqlaganki, bugun biz bu ulug'lukni va ardoqlashni Shayxzoda siy wholemsiga nisbatan ham amalga oshirmoqdamiz. Albatta xalq uchun har qanday yaxshilik qilgan har bir shaxs vaqt kelib o'z mevasini beradi va munosaub baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. <https://googol.uz/post/insho-maqsd-shayxzodaning-hayoti-va-ijodi>
2. <https://econferences.ru/index.php/arims/article/download/4727/2718>
3. <http://kompy.info/eng-yangi-ozbek-adabiyoti-muammolari.html?page=61>
4. Maqsud Shayxzoda. She'rlar

¹ <https://googol.uz/post/insho-maqsd-shayxzodaning-hayoti-va-ijodi>